| CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....                                                                    | 499 |
| <b>Sayfudinova Djamila Badridinovna</b>                                                                                                              |     |
| AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI .....                | 503 |
| <b>Xamroyev Anvar Ashurovich</b>                                                                                                                     |     |
| AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI HAMDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....             | 508 |
| <b>A.A.Abduvoxidov</b>                                                                                                                               |     |
| NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....                          | 518 |
| <b>Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich</b>                                                                                                          |     |
| PERFORMANCE APPRAISAL FAIRNESS AND EMPLOYEE OUTCOMES IN UZBEKISTAN'S EDUCATIONAL INSTITUTIONS: A QUANTITATIVE INVESTIGATION .....                    | 525 |
| <b>Farida Nishanova</b>                                                                                                                              |     |
| SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMLARINING ISHLAB CHIQARISH JARAYONIGA TA'SIRI .....                                                        | 535 |
| <b>O'.M. Baytanov</b>                                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| DIGITAL METHODS FOR MONITORING HAND HYGIENE AND AUTOMATIC NAIL SEGMENTATION USING COMPUTER VISION TECHNOLOGIES .....                                                                             | 540 |
| Shavkat Shukhratovich Azimov, Temurbek Zokir Ugli Daminov,<br>Durdona Nurjonovna Rasulova, Dilorom Umrzakovna Nalibaeva                                                                          |     |
| MATLAB-BASED OPTIMIZATION OF METHANE FEED INTAKE IN A GTL PLANT FOR SYNTHETIC FUEL PRODUCTION.....                                                                                               | 545 |
| U.T. Beshimov, U.R. Azamatov, A.G. Makhsumov, E.E. Mashaev                                                                                                                                       |     |
| НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОПТИМАЛЬНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ВЛОЖЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЗНАЧИМЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....                                                                            | 554 |
| Зайналов Ж.Р. , Абдуллаева С.Ш., Нурмухамедов А.М.                                                                                                                                               |     |
| INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ONLAYN TEST VA AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMLARI: INNOVATSION METODLAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA DOLZARB MUAMMOLAR TAHLILI .....                                       | 561 |
| Nasriddinov Zaynobiddin Xusniddin o'g'li, Sayidov Nozimjon Abdunosirovich                                                                                                                        |     |
| SERVOMOTORLARNING XARAKTERISTIKALARI .....                                                                                                                                                       | 565 |
| Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li                                                                                                       |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                             | 572 |
| O'rinov Komiljon Kozimovich                                                                                                                                                                      |     |
| MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHDA SIFAT NAZORATINI OSHIRISHNI RAQAMLASHTIRISH YO'LLARI.....                                                                                                            | 576 |
| Meliyev X.T.                                                                                                                                                                                     |     |
| INVESTIGATION OF THE EFFICIENCY OF FATS AND OILS REMOVAL FROM WASTEWATER GENERATED BY PUBLIC CATERING ENTERPRISES .....                                                                          | 585 |
| Durdona Obutjonova, Xayrullo Ibroximov, Ahmadjon Ibadullaev, Umar Chorshanbiev, Babaev Askar                                                                                                     |     |
| INSON KAPITALINING IQTISODIY MAZMUNI, UNI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....                                                                        | 591 |
| Ismailova Gulruh Faxriddinovna                                                                                                                                                                   |     |
| HUDUDLARDA MOLIAVIY INKLYUZIVLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINING MOLIAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....                                                                                  | 596 |
| Azlarova Mushtariybegim Abror qizi                                                                                                                                                               |     |
| NORASMIY BANDLIK VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI .....                                                                                                | 600 |
| Bozorova Ozoda Raximovna                                                                                                                                                                         |     |
| DAVLAT KORXONALARINI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) ORQALI XUSUSIYLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ("UZAUTO MOTORS" VA "O'ZBEKTELEKOM" AJ MISOLIDA)..... | 605 |
| Razikov Ulug'bek Zaripovich                                                                                                                                                                      |     |
| QURILISHDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA TURLARI .....                                                                                                                                     | 611 |
| B.K.Abdusamatov, I.A.Yusupov                                                                                                                                                                     |     |
| ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ЗАКРЕПЛЕНИЯ ПОДВИЖНЫХ ПЕСКОВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАЩИТНЫХ ЛЕСНЫХ ПОЛОС ВДОЛЬ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ .....                                                                               | 615 |
| Лесов Кувандык Сагинович, Хуршида Абдимуминовна                                                                                                                                                  |     |
| SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH OMILLARI.....                                                                                                                  | 621 |
| Qosimova Nodira Saidovna                                                                                                                                                                         |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA RENTABELLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....                                                     | 627 |
| Sanjarbek Sotvoldiyev Dilshodbek o'g'li, Qodirov Zohidjon Eraliyevich                                                                                                                            |     |



# QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA RENTABELLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

**Sanjarbek Sotvoldiyev Dilshodbek o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti  
"Iqtisodiyot" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar:

**Qodirov Zohidjon Eraliyevich**

Andijon davlat texnika instituti  
Iqtisodiyot kafedrasida dotsent, i.f.f.d.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyati misolida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va rentabellikni oshirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda fermer xo'jaliklari hamda kichik qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatida xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiya samaradorligini oshirish, texnologik yangilanish hamda raqamli hisob-kitob tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish xarajatlari, optimallashtirish, rentabellik, investitsiya samaradorligi, fermer xo'jaliklari, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract.** This article examines the issues of optimizing agricultural production costs and increasing profitability using the example of the Andijan region. The study analyzes strategies for reducing costs, improving resource efficiency, and enhancing production performance in the activities of farms and small agricultural enterprises. In addition, the paper considers opportunities to increase production profitability through improving investment efficiency, technological modernization, and the introduction of digital accounting and calculation systems.

**Keywords:** production costs, optimization, profitability, investment efficiency, farms, economic efficiency.

**Аннотация.** В данной статье на примере Андижанской области исследуются вопросы оптимизации производственных затрат в сельском хозяйстве и повышения рентабельности. В работе проанализированы стратегии снижения затрат, эффективного использования ресурсов и повышения производственной эффективности в деятельности фермерских хозяйств и малых сельскохозяйственных предприятий. Кроме того, рассматриваются возможности повышения рентабельности производства за счёт увеличения инвестиционной эффективности, технологического обновления и внедрения цифровых систем учёта и расчётов.

**Ключевые слова:** производственные затраты, оптимизация, рентабельность, инвестиционная эффективность, фермерские хозяйства, экономическая эффективность.

## KIRISH

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy yalpi ichki mahsulotda sezilarli ulushga ega. Umumiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat qishloq xo'jaligi sektori milliy YAIMning taxminan 19,2 foizini tashkil etadi. Aholining katta qismi qishloq joylarda yashab, aynan ushbu sohada faoliyat yuritishi sektorning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Andijon viloyati sharoitida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2025-yilning

birinchi yarmida viloyatning qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi sektori ishlab chiqarish hajmi oldingi yilga nisbatan taxminan 3,8 foizga oshgan. Bu esa viloyat agrar sohasida iqtisodiy faollikning barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasini tizimli rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy-iqtisodiy hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlangan [1]. Ushbu strategiya qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mintaqaviy ishlab chiqarish tizimini modernizatsiya qilish hamda agrar sektor rentabelligini mustahkamlashni ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilaydi. Strategiyaga muvofiq, qishloq xo'jaligi sohasida resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish agrar mahsulotlar rentabelligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi. Mazkur hujjat agrar sektorni barqaror va raqobatbardosh rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilab beradi.

Andijon viloyati sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va rentabellikni oshirish masalalari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hudud aholining bandlik darajasi yuqori hamda resurslardan samarali foydalanish zarur bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Agrar tarmoqda xarajatlarni samarali boshqarish nafaqat fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, balki viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining milliy bozordagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va rentabellikni oshirish masalalari bugungi iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni minimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda agrar sektorda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalarini qamrab oladi.

Xorijiy iqtisodchilardan Dr. William va Dr. Sharad Kumar qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot rentabelligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar [2]. Ularning tadqiqotlarida tomchilatib sug'orish tizimlari, dronlar orqali nazorat qilish hamda sensorli monitoring kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash natijasida xarajatlarni sezilarli darajada kamayishi, suv va o'g'it sarfi esa 20–40 foizgacha qisqarishi mumkinligi qayd etilgan. Mazkur tadqiqotlar qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro amaliy tajribani yoritadi.

I. Turdiyeva qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga yetkazish jarayonida transport xarajatlarini optimallashtirish strategiyalarini o'rganib, logistika tizimlarining umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda rentabellikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatgan [3]. Ushbu tadqiqotlar viloyat miqyosida ishlab chiqarish va tashish xarajatlarini samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari, xususan, G. Xamdanova, A. Shakaraliyev va X. Daniyrovlar qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqaruv hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda rentabellikni oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar [4]. Ularning tahlillari asosida agrar korxonalarda resurslarni samarali boshqarish, moliyaviy hisobotlar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarining ahamiyati aniqlangan.

Shuningdek, Amerika biznes maktabi tadqiqotchisi Ankit Khandelwal qishloq xo'jaligida narxlash strategiyalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshirish yo'nalishlarini o'rgangan [5]. Mazkur tadqiqotlar mahsulot bozorida raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

B. Olimova esa fermer xo'jaliklarida logistika xarajatlarini kamaytirish strategiyalarini tahlil qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish hamda resurslardan tejamkor foydalanish bo'yicha muhim takliflarni ilgari surgan [6]. Ushbu ilmiy ishlanmalar qishloq xo'jaligi korxonalari va kichik fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali tashkil etishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy ishlari qishloq xo'jaligida xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda rentabellikni oshirish bo'yicha kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Bunday yondashuvlar zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv hisoboti hamda logistika tizimlarini integratsiyalash orqali agrar sektor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" ham agrar sektor xarajatlarini optimallashtirish va rentabellikni oshirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Mazkur strategiya qishloq xo'jaligi korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Andijon viloyati misolida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda rentabellikni oshirish masalalari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida mazkur mavzu nazariy jihatdan rasmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari hamda xorijiy va milliy olimlar tomonidan 2020–2025-yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilindi.

Maqola metodologiyasi sifatida komparativ tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash usullari qo'llanildi. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlari, rentabellik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligiga oid mavjud ma'lumotlar tizimli ravishda yig'ilib, tahlil qilindi.

Xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali mintaqaviy sharoitlar hamda iqtisodiy omillar hisobga olindi. Ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish strategiyalari hamda rentabellikni oshirish mexanizmlari aniqlab olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi umumiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Mamlakat bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 352 689,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4 foiz o'sish kuzatildi [7]. Ushbu o'sish asosan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hisobiga ta'minlandi, tegishli ravishda 5,9 foiz va 2,1 foizga oshdi. Fermer, tomorqa va boshqa kichik xo'jaliklar umumiy ishlab chiqarishning katta qismiga hissa qo'shmoqda hamda ushbu sektor milliy agrar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Andijon viloyati misolida ham agrar sektor ko'rsatkichlari ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Rasmiy statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda viloyat hududida qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi sektori ishlab chiqarish hajmi 104,7 foiz darajasida o'sdi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan sezilarli ijobiy natijalar qayd etildi [8]. Bu holat sektorda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va maqsadli siyosat natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, agrar sektor rivojlanishi fonida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda rentabellikni oshirish masalalari dolzarb strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur yo'nalishda asosiy e'tibor resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda muhim yo'nalishlardan biri resurslar samaradorligini oshirish hisoblanadi. Yer, suv, mineral o'g'itlar va yoqilg'i kabi resurslar agrar sektor ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish orqali sug'orish bilan bog'liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Zamonaviy sug'orish texnologiyalari, xususan tomchilatib sug'orish tizimlari, an'anaviy sug'orish usullariga nisbatan suv va energiya sarfini 30–50 foizgacha kamaytirishga imkon beradi. Bu esa ishlab chiqarish rentabelligini oshirib, umumiy xarajatlarni pasaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, texnologik yangilanishlar va mexanizatsiya agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnika va texnologiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, vaqt va xarajatlarni tejaydi hamda ishlab chiqarish jarayonida qo'l mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Masalan, traktorlar, kombaynlar, urug' sepish va ekinlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga hamda mahsulotning bir birlik qiymatini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyatida agrar sektor o'sishiga qaramay, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi turlicha shakllanmoqda. Ushbu farqlar asosan ishlab chiqarish hajmi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda xarajatlarni tuzilmasiga bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, dehqonchilik, chorvachilik va meva-sabzavotchilik yo'nalishlarida ishlab chiqarish samaradorligi turlicha bo'lib, bunda operatsion xarajatlarni, bozor talablariga moslashish darajasi hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi.

Investitsiya samaradorligi ham ishlab chiqarish rentabelligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Mintaqa fermerlari uchun investitsiyalarni jalb etishda qulay moliyaviy muhit yaratish, imtiyozli kreditlar hamda subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday investitsiyalar mahsulot qiymatini oshiradi, mahsulotni qayta ishlash va bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda daromad barqarorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, mamlakat miqyosida tasdiqlangan agrar sektorni rivojlantirish strategiyalari, xususan "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi", qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimini modernizatsiya qilish hamda investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Mazkur strategiya resurslar samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali rentabellikni mustahkamlashni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, agrar sektor mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va bozorga chiqarish jarayonlarida bozor mexanizmlaridan samarali foydalanish ham xarajatlarni optimallashtirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahsulotni bozorga yetkazish xarajatlarini kamaytirish va narx barqarorligini ta'minlash fermer xo'jaliklarining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahsulotni qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratish agrar biznes rentabelligini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishda axborot texnologiyalari va raqamli tizimlarni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday tizimlar orqali resurslar sarfi, bozor narxlari hamda ishlab chiqarish jarayonlari haqida tezkor ma'lumotlar olish mumkin bo'lib, bu strategik qarorlar qabul qilishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, raqamli monitoring tizimlari orqali suv resurslari, o'g'itlar va boshqa ishlab chiqarish omillarining real vaqt rejimida nazorat qilinishi xarajatlarni tejash imkonini yaratadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Andijon viloyati qishloq xo'jaligi sektorida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda rentabellikni oshirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar aniqlangan:

1. Zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali mehnat va resurs xarajatlarini kamaytirish.
2. Sug'orish tizimlarini samarali tashkil etish (masalan, tomchilatib sug'orish) orqali suv xarajatlarini qisqartirish.
3. Investitsiyalarni jalb etish va imtiyozli kredit tizimlarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish.
4. Raqamli monitoring tizimlarini qo'llash orqali ishlab chiqarishni rejalashtirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.
5. Qayta ishlash sektorini rivojlantirish orqali mahsulot qiymatini oshirish va daromad barqarorligini ta'minlash.

Umuman olganda, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va rentabellikni oshirish agrar sektor samaradorligini oshiradi hamda Andijon viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki aholi bandligini ta'minlash va mintaqa rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Andijon viloyati misolida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda rentabellikni oshirish masalalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish xarajatlarining katta qismi resurslardan foydalanish, sug'orish tizimlari hamda mehnat samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tomchilatib sug'orish tizimlarini keng qo'llash va ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirib, mahsulot rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli monitoring va axborot tizimlarini qo'llash ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa resurslardan tejamkor foydalanish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Investitsiyalarni jalb etish, imtiyozli kreditlar va subsidiya tizimlarini rivojlantirish orqali fermer xo'jaliklari hamda kichik qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin.

Takliflar:

1. Viloyat qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklarida zamonaviy texnologiyalar hamda mexanizatsiya vositalarini keng joriy etish.
2. Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suv resurslarini tejashga qaratilgan innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etish.
3. Raqamli monitoring va axborot tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini hamda resurslarni rejalashtirish tizimini takomillashtirish.
4. Investitsiyalarni jalb qilish, imtiyozli kreditlar va subsidiya mexanizmlarini kengaytirish orqali agrar sektor rentabelligini oshirish.
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish va qo'shimcha qiymat yaratish orqali mahsulotlarning bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va rentabellikni oshirishga qaratilgan mazkur strategiyalar Andijon viloyati agrar sektorining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga hamda mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" PF–5853-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4567334>



2. William W., Kumar S. The Role of Digital Technologies in Enhancing Agricultural Economic Efficiency // Stallion Journal for Multidisciplinary Associated Research Studies. – 2024. – Vol. 3, No. 5. – P. 255–263. – DOI: <https://doi.org/10.55544/sjmars.3.5.19>
3. Turdiyeva I. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga yetkazishda transport xarajatlarini optimallashtirish yo'llari // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17424850>
4. Xamdamova G., Shakaraliyev A., Daniyrov X. Qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqaruv hisobi (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15743337>
5. Khandelwal A. Agricultural Price Optimization: Balancing Farmer Sustainability with Consumer Affordability // International Journal of Scientific Research in Computer Science, Engineering and Information Technology. – 2025. – Vol. 11, No. 2. – P. 1465–1473. – DOI: <https://doi.org/10.32628/CSEIT25112526>
6. Olimova B. Strategies for Reducing Logistics Costs on Farms // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Vol. 1, No. 5. – P. 706–710. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/115387>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. – URL: <https://www.stat.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Andijon viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti. – URL: <https://www.andstat.uz>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)